**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.V.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**ILYOSOV ZAFAR ILYOS O‘G‘LI**

# TUXUM YO‘NALISHIDAGI TOVUQLARNI TUXUM VA GO‘SHTIGA INNOPROVET PROBIOTIGINING TA’SIRINI VETERINARIYA SANITARIYA JIHATDAN BAHOLASH

**16.00.02 – Hayvonlar patologiyasi, onklogiyasi va morfologiyasi. Veterinar akusherligi va hayvonlar reproduksiyasi biotexnikasi, 16.00.04 – Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi. Veterinariya sanitariyasi, ekologiyasi, zoogigiyenasi va veterinar-sanitariya ekspertizasi**

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falasafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

UDK:637.4:636.5:637.54:614.4

## Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

## Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по ветеринарным наукам

## Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.V.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**ILYOSOV ZAFAR ILYOS O'G'LI**

# TUXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQLARNI TUXUM VA GO'SHTIGA INNOPROVET PROBIOTIGINING TA'SIRINI VETERINARIYA SANITARIYA JIHATDAN BAHOLASH

**16.00.02 – Hayvonlar patologiyasi, onklogiyasi va morfologiyasi. Veterinar akusherligi va hayvonlar reproduksiyasi biotexnikasi, 16.00.04 – Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi. Veterinariya sanitariyasi, ekologiyasi, zoogigiyenasi va veterinar-sanitariya ekspertizasi**

**veterinariya fanlari bo'yicha falasafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI**



**Samarqand – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/V163 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ssuv.uz) hamda «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbarlar:** | **Yunusov Xudaynazar Beknazarovich**<br>biologiya fanlari doktori, professor |
| | **Ibragimov Furkat Buriyevich**<br>veterinariya fanlari nomzodi, dotsent |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Elmurodov Bozorboy Aktamovich**<br>veterinariya fanlari doktori, professor |
| | **Quldoshev G'ulom Mamayusupovich**<br>v.f.f.d (PhD)., dotsent v.b |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Toshkent davlat agrar universiteti** |

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.V.11.01 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil «28» fevral soat $10^{00}$ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77- uy. Tel./faks: (99855) 707-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14354 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77- uy. Tel./faks: (99855) 707-76-86)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 13-fevral kuni tarqatildi.

(2026-yil 13-fevraldagi № 06-raqamli reystr bayonnomasi)

**N.B.Dilmurodov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, vet.f.d., professor

**K.X.Urokov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, v.f.b.f.d. (PhD)

**Q.N.Norboyev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
vet.f.d., professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyo miqyosida parrandachilik qishloq xo'jaligi tarmoqlari orasida jadal rivojlanib borayotgan, yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega va aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etuvchi sohalardan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) va FAO tomonidan e'tirof etilishicha, aholi sonining barqaror ortib borayotgani fonida inson organizmi uchun zarur bo'lgan hayvon oqsillari manbalariga bo'lgan talab ham ortmoqda. "Parranda go'shti o'zining kimyoviy tarkibi bilan boshqa go'sht turlariga nisbatan afzalliklarga ega: u kam yog'li, yuqori tozalikka ega bo'lgan oqsillar, muvozanatlashgan aminokislotalar, minerallar (kaltsiy, fosfor, magniy) va B guruhi vitaminlariga boy bo'lib, tez hazm bo'lish xususiyatiga ega. Shuning uchun parrandachilik mahsulotlari, ayniqsa tuxum va go'sht sog'lom ovqatlanish tizimining ajralmas qismi hisoblanadi"[1]. Ushbu omillarni inobatga olgan holda, Respublika aholisini sifatli parranda mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, eksport salohiyatiga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish dolzarb ilmiy va amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida parrandachilik sanoatini intensivlashtirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa yuqori mahsuldorlikka erishish maqsadida ozuqa resurslaridan maksimal samarali foydalanish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va ekologik xavfsiz hayvon mahsulotlarini yetishtirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Shuni inobatga olgan holda, zamonaviy parrandachilikda ozuqaga qo'shimcha biologik faol moddalar - jumladan, probiotiklar, prebiotiklar, fitobiotiklar va enzimlarni qo'shish orqali organizmda sodir bo'ladigan biokimyoviy va fiziologik jarayonlarni optimallashtirishga qaratilgan yondoshuvlar keng qo'llanilmoqda.

Respublikamizda parrandachilik sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar va chuqur tarkibiy o'zgarishlar natijasida yildan-yilga parrandalar bosh soni ko'payib, mahsuldorligi oshib bormoqda. Bu borada tuxum yo'nalishidagi tovuqlarni oziqlantirish va sifatli tuxum va go'sht yetishtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmagan. Shunday ekan tuxum yo'nalishidagi tovuqlarni tez yetiltirish, aholi iste'moli uchun sifatli tuxum va go'sht ishlab chiqarish uchun kuzatish va tajriba ishlari amalga oshirilishini keng yo'lga qo'yish dolzarb masala hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-noyabrdagi PQ - 4015-son «Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi[2], 2021-yil 14-iyundagi PQ-5146-son «Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2022-yil 24-yanvardagi PQ-100-son «Parrandachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab

---

[1] Пронина Р.В. Эффективность использования пробиотиков в бройлерном птицеводстве / Пронина Р.В. // Сельскохозяйственные науки и агропромышленный комплекс на рубеже веков. – 2014 – №5 – с. 253 - 256.

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-noyabrdagi PQ - 4015-son «Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori.

quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»[3]gi, va 2022-yil 31-martdagi PQ-187-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Parrandalarni intensiv oziqlantirish tizimlarida biologik faol moddalar, xususan probiotiklar va boshqa ozuqaviy qo'shimchalarni qo'llash bo'yicha N.B.Danilevskaya, I.A.Lebedova, E.A.Martinesko, A.N.Shvidkov, V.M.Korshunov, O.V.Kvan, T.V.Zotova, G.A.Nozdrin kabi rus olimlari tomonidan probiotiklarning parrandalar organizmida modda almashinuvi, o'sish dinamikasi va mahsulot sifatiga ta'siri bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shuningdek, P.A.Thacker, E.M.Hossain, A.A.Saleh, Y.H.Park, E.R.Pelicano singari xorijiy olimlar tomonidan biologik faol ozuqa qo'shimchalarining parrandachilik mahsulotlarining oziqaviy va biologik qiymatini oshirishdagi roli, mahsuldorlik va immunologik javobga ta'siri keng qamrovli eksperimental tadqiqotlar orqali asoslab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi olimlaridan R.B.Davlatov, D.Ibragimov, S.B.Eshburiyev, U.A.Raxmonov, N.Sh.Hamroqulov kabi mutaxassislar tomonidan probiotik va prebiotik qo'shimchalar yordamida parrandalarni oziqlantirish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, o'sish ko'rsatkichlari va organizmning fiziologik javoblarini o'rganishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Ammo, Respublikamizning parrandachilik fermer xo'jaliklari sharoitida tuxum yo'nalishidagi tovuqlarni tuxum va go'shtiga "Innoprovet" probiotigining ta'sirini veterinariya-sanitariya jihatdan baholash mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan. Shu sababli, tuxum yo'nalishidagi tovuqlarni tuxum va go'shtiga "Innoprovet" probiotigining ta'siri, ozuqaviy, energetik, biologik qiymati va veterinariya-sanitariya ekspertizasi jihatidan baholash bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarimiz bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqotlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida amalga oshirilgan "Parranda va quyonlar kasalliklarini oldini oluvchi va davolovchi ekologik toza mahalliy probiotiklar yaratish" mavzusidagi PZ – 2020123121 – raqamli (2021-2023-yy.), O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Innovatsion rivojlanish agentligi huzuridagi, Jahon banki ishtirokidagi "O'zbekiston milliy

---

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-yanvardagi PQ-100-son «Parrandachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori.

innovatsion tizimini modernizatsiya qilish – MUNIS” xalqaro loyihaning RCP-01/31 dasturi shuningdek, hozirgi kunda universitetda amalga oshirilayotgan “O‘zbekistonda veterinariya, biotexnologiya va chorvachilik sohasini rivojlantirish uchun kadrlarni intensiv tayyorlash ilmiy biznes inkubatori” (2023-2025-yy.) nomli Mega loyiha doirasida Samarqand viloyatining ayrim tumanlaridagi parrandachilik xo‘jaliklari bilan «Tovuqlarning kasalliklarni oldini oluvchi va davolovchi ekologik toza mahalliy probiotikni qo‘llash, xizmatlar ko‘rsatish» mavzusidagi xo‘jalik (№ 23/16, 07.12.2023, № 73, 12.06.2024., № 169, 17.06.2025-yil) shartnomasi asosida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar ratsioniga “Innoprovet” probiotigini qo‘shib oziqlantirish sharoitida tuxum va go‘shtining morfologik o‘zgarishlari hamda veterinariya-sanitariya ekspertizasi ko‘rsatkich darajalarini aniqlash.

**Tadqiqotning vazifalari:**

“Innoprovet” probiotigi berilgan tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarning gemotologik ko‘rsatkichlarini aniqlash;

“Innoprovet” probiotigi berilgan tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar tuxumning morfologik ko‘rsatkichlari (shakli, qobiq mustahkamligi, oqsil va sariqlik indeksi) ni aniqlash;

“Innoprovet” probiotigi berilgan tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarda tuxum mahsuldorligi ko‘rsatkichlari va tuxum sifatini baholash;

“Innoprovet” probiotigi berilgan tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar tuxumining kimyoviy tarkibi, energetik qiymati va mikrobiologik ko‘rsatkichlarini aniqlash;

“Innoprovet” probiotigi qo‘llanilgan tovuqlar go‘sht mahsuldorligi va go‘shtining morfologik bo‘linish ko‘rsatkichlarini hamda go‘shtning organoleptik, fizik-kimyoviy, biokimyoviy ko‘rsatkichlarini aniqlash.

**Tadqiqotning ob’ekti** sifatida tuxum yo‘nalishdagi “Lohmann sandy” zotli tovuqlar, ulardan olingan tuxum va go‘sht hamda “Innoprovet” probiotigidan foydalanilgan.

**Tadqiqotning predmeti** “Innoprovet” probiotigini tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar ratsioniga qo‘shib boqish natijasida tuxum va go‘shtining morfologik, veterinariya-sanitariya jihatdan sifat ko‘rsatkichlarida yuzaga keladigan o‘zgarishlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Mazkur dissertatsiya ishini bajarishda gemotologik, organoleptik, ovoskopik, fizik-kimyoviy, biokimyoviy, mikrobiologik, biometrik, statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.**

“Innoprovet” probiotigi berilgan tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar qonida gemoglobin miqdorini nazorat guruhiga nisbatan 15 g/l (13,4 %) ga, eritrotsitlar sonini 0,53 mln/mkl (22,6 %) ga, glyukozani 0,60 mmol/l (11,4 %) ga, umumiy oqsil miqdorini 3 g/l (6,5 %) ga, umumiy kaltsiy miqdori 0,10 mmol/l (2,6 %) ga, magniy miqdorini 0,10 mmol/l (9 %) ga ko‘payishi aniqlandi;

ilk bor “Innoprovet” probiotigi berilgan tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarda tuxum mahsuldorligi, tuxum shakli, qobiq mustahkamligi, oqsil va sariqlik indeksi kabi morfologik ko‘rsatkichlar, shuningdek, organoleptik sifatlari va navlarga ajratilishiga ta'siri aniqlandi;

"Innoprovet" probiotigi qo'llanilgan tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda go'sht mahsuldorligi va tana go'shtining morfologik bo'linishi, shuningdek, go'shtning organoleptik, fizik-kimyoviy va biokimyoviy ko'rsatkichlari ilk bor kompleks tarzda o'rganildi hamda ushbu probiotikning go'sht sifatiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri ilmiy asoslandi;

"Innoprovet" probiotigi bilan oziqlantirilgan tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning tuxum va go'sht mahsuldorligini oshirish bo'yicha veterinariya-sanitariya talablarga mos, ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tuxum yo'nalishidagi tovuqlar ratsioniga "Innoprovet" probiotigini qo'shish ularning tuxum va go'sht mahsuldorligi va o'sish dinamikasiga ijobiy ta'sir etishi, bu esa parranda mahsulotlari yetishtirish samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo'ldi.

Tuxum yo'nalishidagi tovuq qonidagi asosiy gemotologik ko'rsatkichlarning tahlili asosida "Innoprovet" probiotigining organizmga bo'lgan ijobiy ta'siri isbotlandi hamda parrandalarning umumiy fiziologik holatini baholashda foydalaniladigan monitoring tizimi takomillashtirildi.

Tuxum va go'sht mahsulotlarining organoleptik, fizik-kimyoviy, oqsil, aminokislotalar va mineral tarkib ko'rsatkichlari aniqlanib, bu asosida yuqori sifatli, parhezbop va to'la qiymatli mahsulot yetishtirish texnologiyasi yaratildi.

Mahsulotlarning mikrobiologik xavfsizlik darajasi tahlil qilinib, ularni sanitariya-me'yorlariga muvofiqligi aniqlandi va "Innoprovet" probiotigi qo'llangan holda tuxum va go'sht mahsulotlari iste'molga xavfsiz ekanligi ilmiy asosda isbotlandi.

Tuxum va go'sht mahsulotlarini saqlash davomida yuzaga keladigan sifat o'zgarishlari monitoring qilindi, bu esa mahsulotlarning yaroqlilik muddati, sifatini, saqlash shartlari va texnologik barqarorligini aniqlash imkonini berdi.

Olingan natijalar asosida "Innoprovet probiotigi bilan oziqlantirilgan tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning tuxum va go'sht mahsuldorligi hamda sifatini oshirish bo'yicha" ilmiy asoslangan veterinariya-sanitariya talablariga javob beruvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi hamda ularni ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etish mexanizmlari ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tekshirishlarda zamonaviy tadqiqot usullarining qo'llanilganligi, yig'ilgan materiallar asosida olingan natijalarning nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar natijalari bilan chuqur ilmiy tahlil etilganligi, mutaxassislar tomonidan ilmiy-tadqiqot va birlamchi materiallarga ijobiy baho berilganligi, amaliy natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi, shuningdek, laboratoriya va ishlab chiqarish tajribalarining dalolatnomalarga asoslanganligi, ilmiy ishlar natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning ratsioniga "Innoprovet" probiotigini qo'shib boqish ularning tuxum va go'sht mahsuldorligi, organizmning fiziologik holati hamda mahsulotlarning sifat va oziq-ovqat qiymatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Natijalar probiotiklardan foydalanishning samaradorligini baholash bo'yicha yangi ilmiy ma'lumotlar bilan to'ldiradi va parrandachilikda ratsional oziqlantirish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "Innoprovet" probiotigidan foydalanish tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda ozuqa hazm bo'lishini yaxshilaydi, mahsulotlarning sifatini oshiradi va ularning veterinariya-sanitariya ko'rsatkichlarini me'yorda ushlab turadi. Mahsulotlarda mikroflora (ichak tayoqchalari, stafilokokklar, mog'or zamburug'lari va boshqa gigiyenik mikroorganizmlar) miqdorini aniqlash va baholash bo'yicha zamonaviy laborator tahlil usullari takomillashtirildi. Shuningdek, pH, energetik qiymat, fermentativ faollik va fizik-kimyoviy o'zgarishlar asosida tuxum va go'shtning sifatini baholash mezonlari takomillashtirildi. Tadqiqot natijalari asosida parrandachilik mahsulotlarining biologik xavfsizligi va saqlanish barqarorligini ta'minlash, ularni iste'mol yoki texnik maqsadlarda oqilona foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** "Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarni tuxum va go'shtiga innoprovet probiotigining ta'sirini veterinariya sanitariya jihatdan baholash" mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

""Innoprovet" probiotigi bilan oziqlantirilgan tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning tuxum va go'sht mahsuldorligi hamda sifatini oshirish bo'yicha" tavsiyanoma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 02-oktyabrdagi № 02/23-678-son ma'lumotnomasi asosida). Natijada, tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda "Innoprovet" probiotigini ratsionga kiritish orqali tuxum va go'sht mahsulotlarining biologik xavfsizligi, oziqaviy qiymati, veterinariya-sanitariya holati va saqlanish barqarorligini baholash imkoniyati yaratildi. Shuningdek, "Innoprovet" probiotigi qo'llangan tuxum yo'nalishidagi tovuqlardan olingan tuxum va go'sht namunalari organoleptik, fizik-kimyoviy, biokimyoviy va mikrobiologik usullarda tekshirilib, ularni iste'molga yaroqlilik me'zonlariga muvofiq baholashga xizmat qiluvchi veterinariya sanitariya ekspertizasi usuli takomillashtirildi.

Mazkur tavsiyalar va baholash usullari Farg'ona viloyati, Beshariq tumanining "YANGI HAYOT CHICKEN PARRANDA" MCHJ parrandachilik xo'jaligi, Namangan viloyati, Pop tumanining "Aktiv Chorkesar Layt" MCHJ parrandachilik xo'jaligi, Samarqand viloyati, Jomboy tumanidagi "Qorasuv parranda fayz" MCHJ parrandachilik xo'jaliklariga amaliyotga joriy etildi (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 02-oktyabr № 02/23-678-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu usullarni qo'llash orqali tuxum va go'sht mahsulotlarining xavfsizligi, biologik to'liqligi va saqlanish barqarorligini aniqlash, mahsulotlar pH ko'rsatkichi, oqsil, yog', namlik kabi me'zonlar asosida iste'molga yaroqlilik bahosini berish, parrandachilik xo'jaliklarida ekologik xavfsiz va yuqori sifatli mahsulot yetishtirish texnologiyasini shakllantirish, veterinariya-sanitariya normalariga javob beruvchi monitoring tizimlarini amaliyotga joriy etish.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari, umumiy 5 ta jumladan, 3 ta Respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, jumladan 3 ta Respublika va 5 ta xorijiy ilmiy jurnallarda, 3 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy konferensiyalarda nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, amaliyotga tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **"Kirish"** qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob'ekti va predmetlari, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarinig ishonchliligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **"Adabiyot ma'lumotlarining tahlili"** deb nomlangan birinchi bob to'rt qismga bo'lingan bo'lib, uning birinchi "Veterinariya amaliyotida va parrandachilikda probiotiklarni, shu jumladan "Innoprovet" probiotigini qo'llanilishi" deb nomlangan qismida probiotiklarni umumiy ta'rifi, veterinariya amaliyotida va parrandachilikda probiotiklardan foydalanish haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan. "Probiotiklarni qo'llashning hayvonlardan olingan mahsulotlarni oziqaviy va biologik qiymatiga ta'siri" deb nomlangan ikkinchi qismida tuxum va go'shtning biologik qiymatini oshirishda probiotiklarning o'rni va tuxum va go'shtning biologik qiymatiga ta'sir qiluvchi omillar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Tadqiqotlar materiallari va uslublari"** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot materiallari uslublari, tadqiqot olib borilgan hududlarning tavsifi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotlar Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan bo'lib, mazkur ilmiy tadqiqotlar universitetda amalga oshirilayotgan "O'zbekistonda veterinariya biotexnologiya va chorvachilik sohasini rivojlantirish uchun kadrlarni intensiv tayyorlash ilmiy biznes inkubatori" (2023-2025-yy.) nomli Mega loyiha doirasida hamda Samarqand viloyati Jomboy tumanining "Qorasuv parranda fayz" MCHJ parrandachilik xo'jaligidagi 1200 bosh "Lohman sandi" zotiga mansub 4,5 oylik tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda olib borildi.

Samarqand viloyati Jomboy tumanining "Qorasuv parranda fayz" MCHJ parrandachilik xo'jaligiga qarashli tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning tuxum va go'shtiga "Innoprovet" probiotigining ta'sirini o'rganish maqsadida 4,5 oylik bo'lgan sog'lom tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda gemotologik, organoleptik, ovoskopik, fizik-kimyoviy, biokimyoviy, mikrobiologik, biometrik, statistik va qiyosiy tahlil usullar orqali tekshirishlar o'tkazildi.

Dissertatsiyaning **"Innoprovet" probiotigi qo'llanilganda tovuqlarning fiziologik va tuxum mahsuldorlik ko'rsatkichlari"** nomli uchinchi bobida tovuqlar qonining morfologik va biokimyoviy ko'rsatkichlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tajribalardagi tovuqlar qonining morfologik va biokimyoviy o'zgarishlarni o'rganish maqsadida Samarqand viloyatining Jomboy tumani "Qorasuv parranda fayz" MCHJ parrandachilik xo'jaligidagi tovuqlardan "O'xshash juftliklar" tamoyili asosida tanlab olingan tovuqlarda "Innoprovet" probiotigining tovuqlar qonining morfologik hamda biokimyoviy tarkibiga ta'sirini o'rganish maqsadida 120-150-180 kunlikdagi tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning qanot osti venasidan qon namunalari olinib har oyda bir marta laborator tahlil qilinib borildi.

**1-jadval**

**Tovuqlar qon ko'rsatkichlarining tahlili**

| Ko'rsatkichlar | Guruh | 120 kunlik | 150 kunlik | 180 kunlik |
|---|---|---|---|---|
| **Eritrotsit, mln/mkl** Me'yor 2,5 – 3,5 | **Nazorat** | 2,22 | 2,27 | 2,34 |
| | **Tajriba** | 2,24 | 2,39 | 2,87 |
| **Leykotsit, ming/mm$^3$** Me'yor 15 – 30 | **Nazorat** | 32,2 | 31,9 | 31,7 |
| | **Tajriba** | 33,4 | 32,6 | 32,4 |
| **Gemoglobin, g/l** Me'yor 80 – 130 | **Nazorat** | 103 | 106 | 112 |
| | **Tajriba** | 106 | 109 | 127 |

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra tajriba guruhida eritrotsitlar miqdori har bir bosqichda nazoratga nisbatan yuqoriligi aniqlandi. Jumladan tajriba guruhi tovuqlarining 180 kunlik davrida eritrotsitlar soni nazorat guruhiga nisbatan 0,53 mln/mkl ga oshganligi aniqlandi. Tajribalar oxirida "Innoprovet" probiotigi berilgan tovuqlar qonida leykotsitlar miqdori o'rtacha 32,4 ming/mm$^3$ ekanligi aniqlanib nazorat guruhi bilan sezilarli farq aniqlanmadi. Leykotsitlar immun tizimining asosiy ko'rsatkichidir. "Innoprovet" probiotigi berilgan tovuqlar qonida gemoglobin miqdori o'rtacha 127 g/l ekanligi aniqlanib nazorat guruhiga nisbatan 15 g/l ga oshganligi aniqlandi. Ushbu natijalar "Innoprovet" probiotigi organizmdagi fiziologik jarayonlarni faollashtiradi, sog'lom o'sish, tuxum berish salohiyatini oshiradi degan ilmiy asosni tasdiqlaydi.

Tovuqlar qonidagi biokimyoviy o'zgarishlarni o'rganganimizda "Innoprovet" probiotigi berilgan tovuqlar qonida gemoglobin miqdori 150 kunligida nazorat guruhiga nisbatan 3 g/l (3,3 %) ga yuqoriligi, 180 kunlikda esa 15 g/l (13,4 %) ga, glyukoza miqdori 150 kunligida nazorat guruhiga nisbatan 0,30 mmol/l (6 %) ga, 180 kunligida esa 0,60 mmol/l (11,4 %) ga, qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori 150 kunligida nazorat guruhidan 3 g/l (6,7 %) ga, 180 kunligida esa 3 g/l (6,5 %) ga, umumiy kaltsiy miqdori esa 150 kunligida nazoratga nisbatan 0,40 mmol/l (11,6 %), 180 kunligida esa 0,10 mmol/l (2,6 %) ga, magniy miqdori ham 150 kunligida nazoratga nisbatan 0,15 mmol/l (15,2 %), 180 kunligida esa 0,10 mmol/l (9 %) ga yuqoriligi aniqlandi.

**2-jadval**

**Tovuqlar qonining biokimyoviy ko'rsatkichlari n=30.**

| Xo'jalik | Tovuqlar yoshi, kunlik | Gemoglobin g/l | Glyukoza mmol/l | Umumiy Oqsil g/l | Umumiy kaltsiy mol/l | Magniy mol/l |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Me'yorda | 80-130 | 1,44-1,77 | 43-59 | 2,5-4,5 | 0,8-1,2 |
| "Qorasuv parranda fayz" MChJ ga qarashli parrandachilik xo'jaligi | Tajriba guruhi | | | | | |
| | 120 | 106±2,3 | 4,84±0,3 | 42,6±0,21 | 3,17±0,3 | 0,98±0,2 |
| | 150 | 109,5±2,1 | 5,28±0,2 | 47,5±0,22 | 3,86±0,1 | 1,14±0,5 |
| | 180 | 127±1,5 | 5,86±0,3 | 49,2±0,14 | 4,02±0,4 | 1,21±0,1 |
| | Nazorat guruhi | | | | | |
| | 120 | 103±2,1 | 4,82±0,3 | 42,1±0,21 | 3,01±0,3 | 0,88±0,2 |
| | 150 | 106±2,6 | 4,98±0,2 | 44,5±0,22 | 3,46±0,1 | 0,99±0,5 |
| | 180 | 112±1,8 | 5,26±0,3 | 46,2±0,14 | 3,92±0,4 | 1,11±0,1 |

Yuqoridagi tadqiqot natijalariga asososan "Innoprovet" probiotigi berilgan tovuqlar qonining biokimyoviy ko'rsatkichlari ya'ni gemoglobin, glyukoza, oqsil, kaltsiy, magniy miqdorlari nazorat guruhiga nisbatan oshganligi bu esa, qonning sifati yaxshilanishi, energiya almashinuvining faolligi, immunitet oshishi belgisi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning «**"Innoprovet" probiotigi berilgan tovuqlar tuxumining morfologik ko'rsatkichlari**» deb nomlangan ushbu qismida tovuqlar tuxumining morfologik ko'rsatkichlarinining o'zgarishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tekshirishlar natijasiga ko'ra tajriba guruhdagi tovuqlarning tuxum mahsuldorligi tajribalar boshidan ya'ni 135 kunlikdan 315 kunlikgacha o'rtacha 76,7±0,1 % dan 86,7±0,2 % gacha, tuxumini og'irligi o'rtacha 55±0,5 gr dan 69±0,5 gr gacha, tuxum po'chog'ining og'irligi o'rtacha 5,12±0,02 gr dan 6,04±0,04 gr gacha oshganligi aniqlandi. Yupqa po'choqli tuxumlar tajribalarning boshida 6,7 % gacha uchragan bo'lsa tajribalar oxirda tajriba guruhdagi tovuqlarda yupqa po'choqli tuxumlar tug'ulishi deyarli uchramadi.

Nazorat guruhdagi tovuqlarning tuxum mahsuldorligi o'rtacha 73,3±0,2 % dan 80,0±0,11 % gacha, tuxumini og'irligi o'rtacha 53,8±0,4 gr dan 63,2±0,2 gr gacha, tuxum po'chog'ining og'irligi o'rtacha 5,16±0,01 gr dan 5,72±0,02 gr gacha o'zgarishi aniqlandi. Yupqa po'choqli tuxumlar 9,4 % gacha yupqa po'choqli tuxumlar tug'ulishi uchradi, tajriba oxirlarida esa 10,6 % gacha uchradi, bu belgilar ayrim makro va mikroelementlar yetishmovchiligiga xos bo'lgan belgilar bo'lib mahsuldorlikka va mahsulot sifatiga ta'sir qiladi.

Tekshirishlar natijalarga ko'ra tajriba guruhining 135 kunlikdan 195 kunlikgacha bo'lgan tovuqlardan olingan tuxumlar soni 1380 dona nazorat guruhida 1320 dona tuxum olingan bo'lib, tovuqlarning tuxum mahsuldorligi tajriba guruhida o'rtacha 76,7 % ni, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 73,3 % ni tashkil etdi. Shu davr davomida tajriba guruhidan olingan 1380 dona tuxumdan, 965 tasi (69,9 %) oliy navli tuxumlar (65-70 g), 399 tasi (28,9 %) 1-navli (55-65 g), 12 tasi (0,9 %) 2-navli tuxumlar (45-55 g) hamda 4 tasi (0,3 %) 70 g dan og'irroq bo'lgan saralangan tuxumlar sifatida baholandi. Nazorat guruhida 1320 dona tuxumdan 922 tasi (69,8 %) oliy navli, 378 tasi (28,6 %) 1-navli, 18 tasi (1,4 %) 2-navli va 2 tasi (0,15 %) saralangan tuxumlar naviga kirishi aniqlandi. Bu ko'rsatkichlar "Innoprovet" probiotigi berilganda tovuqlarning tuxum sifatini oshirishini bildiradi. Tuxum po'chog'i og'irligi tajriba guruhida biroz yuqoriroq bo'lib, olingan o'rtacha namuna og'irligiga nisbatan 5,12 % ni, nazorat guruhida esa 5,16 % ni tashkil etdi, farq ahamiyatli emas. Yupqa po'choqli tuxumlar ulushi tajriba guruhida 10,4 % bo'lsa, nazorat guruhida 9,7 % ni tashkil etdi, ya'ni tajriba guruhida ushbu kamchilik 0,7 % ga yuqoriroq bo'lgan. Shakli o'zgargan tuxumlar soni esa tajriba guruhida 14 ta, nazorat guruhida esa 19 ta bo'lgan.

Tajriba guruhining 195 kunlikdan 255 kunlikgacha bo'lgan tovuqlardan 1440 dona tuxum, nazorat guruhidan esa 1380 dona tuxum olingan bo'lib, tovuqlarning tuxum mahsuldorligi tajriba guruhida o'rtacha 80 %, nazorat guruhida esa 76,7 % ni tashkil etdi. Shu davrda tajriba guruhidan olingan jami 1440 dona tuxum olingan bo'lib shundan 1030 tasi (71,5 %) oliy navli, 395 tasi (27,4 %) 1-navli, 4 tasi (0,3 %) 2-navli va 11 tasi (0,76 %) saralangan tuxum navlariga ajratildi. Nazorat guruhida esa 1380 dona tuxumdan 982 tasi (71,1 %) oliy navli, 379 tasi (27,5 %) 1-navli, 11 tasi (0,8 %) 2-navli va 8 tasi (0,6 %) saralangan tuxumlar bo'lganligi aniqlandi. Bunda "Innoprovet" tuxum qo'yish faolligini oshirganligini ko'rsatadi.

**3-jadval**

**Innoprovet probiotigi berilganda tovuqlar tuxumining morfologik ko'rsatkichlari**

| № | Guruhlar | O'rtacha Mahsuldorlik, % | Olingan tuxumlar og'irligi, g | Tuxum po'chog'ining og'irligi, g | Yupqa po'choqli tuxumlar, % | Shakli o'zgargan tuxumlar* |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Tajriba boshida (135 kunlikdan 195 kunlikgacha)** | | | | | | |
| 1 | Tajriba | 76,7 | 55,0 | 5,12 | 6,7 | 14 |
| 2 | Nazorat | 73,4 | 53,8 | 5,16 | 9,4 | 19 |
| **Tajriba boshida (195 kunlikdan 255 kunlikgacha)** | | | | | | |
| 1 | Tajriba | 80 | 62,0 | 5,78 | 1,5 | 11 |
| 2 | Nazorat | 76,6 | 58,0 | 5,46 | 10,2 | 24 |
| **Tajriba oxirida (255 kunlikdan 315 kunlikgacha)** | | | | | | |
| 1 | Tajriba | 86,7 | 69,0 | 6,04 | - | 7 |
| 2 | Nazorat | 80 | 63,2 | 5,72 | 10,6 | 26 |

***60 kunda olingan tuxumlar sonidan kelib chiqib**

Tuxum po'chog'i og'irligi tajriba guruhida 5,78 %, nazorat guruhida esa

5,46 % ni tashkil etgan bo‘lib, tuxum po‘chog‘ining qalinlashganligi hisobiga og‘irligi ham oshganligini ko‘rish mumkin. Yupqa po‘choqli tuxumlar ulushi tajriba guruhida 1,5 % ni, nazorat guruhida esa 10,2 % ni tashkil etgan. Bu esa probiotikning kaltsiy fosfor almashinuvi, mineral moddalar sintezini yaxshilashi hisobiga tuxum po‘chog‘i mustahkamligini sezilarli darajada oshirganligini ko‘rsatadi. Shakli o‘zgargan tuxumlar soni tajriba guruhida 11 ta, nazorat guruhida esa 24 ta bo‘lib, tajriba guruhida ushbu ko‘rsatkich 2 baravarga kamayganligi aniqlandi.

Tajriba guruhining 255 kunlikdan 315 kunlikgacha bo‘lgan tovuqlardan 1560 dona tuxum, nazorat guruhidan esa 1440 dona tuxum olingan.(60 kunda) Ushbu davrda tuxum mahsuldorligi tajriba guruhida o‘rtacha 86,7 %, nazorat guruhida esa 80,0 % ni tashkil etgan bo‘lib, bu Innoprovet probiotigi tuxum qo‘yish faolligini izchil ravishda oshirib borganini ko‘rsatadi. Tajriba guruhidan olingan 1560 dona tuxumdan 1120 tasi (71,8 %) oliy navli, 421 tasi (27 %) 1-navli, 3 tasi (0,2 %) 2-navli va 16 tasi (1 %) saralangan tuxumlar bo‘lgan. Nazorat guruhida esa 1440 tuxumdan 1005 tasi (69,8 %) oliy navli, 412 tasi (28,6 %) 1-navli, 14 tasi (1 %) 2-navli va 9 tasi (0,6 %) saralangan tuxumlar navlariga kirishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Tuxumni organoleptik ko‘rsatkichlari va energetik qiymati”** deb nomlangan ushbu qismida tuxumni organoleptik ko‘rsatkichlari va energetik qiymatini o‘rganish natijalari keltirilgan.

Tuxumlarning sifati ularning ovoskopik ko‘rinishiga qarab baholandi. Ovoskopik baholash davomida tuxumning sarig‘i holati va joylashuvi, oqsilning zichligi va tiniqligi, havo kamerasi holati va balandligi hamda boshqa ko‘zga ko‘rinadigan kamchiliklar hisobga olindi. Tajriba guruhidagi tuxumlarning sarig‘i mustahkam, chegaralari sezilmas va markaziy qismda joylashgan bo‘lib, qo‘zg‘almas holatda saqlangan. Bu holat tuxumning yangiligi va sifatining yuqori darajada ekanligini bildiradi. Sarig‘ning markazdan siljimaganligi tuxum saqlanish jarayonida silkinishga uchramaganini ko‘rsatadi.

**4-jadval**

**Tekshirilgan tuxumlardan olingan o‘rtacha namunaning organoleptik sifat ko‘rsatkichlari**

| Guruhlar | Sarig‘ holati va joylashuvi | Oqsil zichligi va rangi | Havo kamerasi holati va balandligi | Ovoskopda aniqlangan boshqa kamchiliklar |
|---|---|---|---|---|
| Tajriba | Sariqlik mustahkam, zo‘rg‘a ko‘rinadigan, ammo chegaralari aniq, markaziy o‘rinni egallab, o‘z joyida qo‘zg‘almas holatda | Oqsili zich, och rangli, tiniq | Harakatsiz; balandligi 2 mm dan oshmagan | Kamchiliklar aniqlanmadi |
| Nazorat | Sariqlik mustahkam, zo‘rg‘a ko‘rinadigan, ammo chegaralari aniq, markazdan qisman chetlashgan, uncha bilinmas, ozgina siljishi aniqlandi | Oqsili zich, och rangli, tiniq | Harakatsiz yoki ozgina siljish holatlari aniqlandi; balandligi 2 mm dan oshmagan | Qisman yupqa po‘choqli tuxumlar aniqlandi |

Havo kamerasi tajriba va nazorat guruhlarida harakatsiz bo‘lib, balandligi 2 mm dan oshmagan. Bu ko‘rsatkich tuxumning yangi ekanligidan dalolat beradi. Ovoskopik tekshiruv davomida har ikki guruhda ko‘zga ko‘rinadigan yirik kamchiliklar aniqlanmadi, ammo nazorat guruhidagi tuxumlarda qisman yupqa po‘choqli tuxumlar mavjudligi aniqlandi.

Tadqiqotlarimizda tuxumning energetik qiymati ko‘rsatkichini baholashda biz “O‘z DSt 626:2014 – Tuxum oziq-ovqat mahsuloti. Texnik shartlar” standartiga asoslandik. Energetik qiymatni aniqlashda ikki xil yondoshuv qo‘llaniladi: laboratoriya orqali aniqlash va nazariy hisob-kitoblarga asoslangan usul. Tuxum tarkibidagi asosiy moddalarning (oqsillar, yog‘lar, uglevodlar) miqdori aniqlangani sababli biz nazariy hisoblash usulidan foydalandik va shu asosida mahsulotning energetik qiymatini belgiladik hamda quyidagicha natijalar olindi.

**5-jadval**

**Tuxumning energetik qiymatini aniqlash natijalari (100 g mahsulotda)**

| Guruhlar | Energetik qiymati kkal | Energetik qiymati kDj |
|---|---|---|
| **Tajriba** | 139,24 | 582,79 |
| **Nazorat** | 120,25 | 503,43 |

Tajriba guruhiga kiruvchi tovuqlarga “Innoprovet” probiotigi berilganda, tuxumlarning energetik qiymati 139,24 kkal energiya beradi, bu esa nazorat guruhiga nisbatan 19 kkal (yoki 15,8 %) ko‘proq energiyani tashkil etadi. kDJ hisobida esa bu qiymat 582,79 kDJ bo‘lib, bu ham nazorat guruhidan 79,36 kdJ ga yuqoridir. Bu yuqori energetik qiymat, tuxum tarkibida oqsil va yog‘ miqdorining ko‘pligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, yog‘larning kaloriyaga qo‘shgan hissasi katta bo‘ladi, chunki 1 g yog‘ 9 kkal energiya beradi. Nazorat guruhi tuxumlarida esa energiya ko‘rsatkichi 120,25 kkal va 503,43 kJ ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning **“Tajribadagi tovuqlardan olingan tuxumlarning kategoriyalar bo‘yicha navlari”** deb nomlangan ushbu qismida tuxumni kategoriyalar bo‘yicha navlarini o‘rganish natijalari keltirilgan.

Parrandachilik fabrikalarida tuxumlar chiqarilgandan so‘ng bir sutkadan kechiktirmay saralanadi. Tuxumlar vazniga qarab “O‘z DSt 626:2014 Яйца куриные пищевые. Технические условия” talablariga muvofiq navlarga bo‘lindi. Tadqiqotlar davomida o‘rganib borilgan 8520 dona tuxumlar tovuqlarning yoshiga qarab olingan vaqtini inobatga olib navlarga ajratildi.

Olingan natijalarga ko‘ra 135 kunlikdan 195 kunlikgacha bo‘lgan davrda tajriba guruhidan 1380 dona tuxum olingan bo‘lib, shundan 965 tasi oliy navli o‘rtacha og‘irligi 66,7 g bo‘lgan tuxumlar, 399 tasi 1-navli o‘rtacha og‘irligi 59,6 g, 12 tasi 2-navli o‘rtacha og‘irligi 50,9 g bo‘lgan tuxumlar hamda 4 tasi 70 g dan og‘irroq bo‘lgan saralangan tuxumlar sifatida baholandi (6-jadval).

**6-jadval**

**Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarga "Innoprovet" probiotigi berilganda olingan tuxumni kategoriyalar bo'yicha navlari**

| **Guruhlar** | **Saralangan oliy navli (dona)** 70 g< | **Oliy navli tuxumlar (dona)** 65-70 g | **1-navli tuxumlar (dona)** 55-65 g | **2-navli tuxumlar (dona)** 45-55 g |
|---|---|---|---|---|
| **Tajriba boshida (135 kunlikdan 195 kunlikgacha)** | | | | |
| Tajriba n=1380 | 4 | 965 | 399 | 12 |
| O'rtacha og'irligi, g | 71,2 | 66,7 | 59,6 | 50,9 |
| Nazorat n=1320 | 2 | 922 | 378 | 18 |
| O'rtacha og'irligi, g | 70,6 | 65,2 | 58,1 | 49,2 |
| **Tajriba o'rtalarida (195 kunlikdan 255 kunlikgacha)** | | | | |
| Tajriba n=1440 | 14 | 1014 | 408 | 4 |
| O'rtacha og'irligi, g | 72,4 | 68,1 | 60,4 | 51,6 |
| Nazorat n1380 | 8 | 982 | 379 | 11 |
| O'rtacha og'irligi, g | 71,1 | 67,2 | 59,2 | 50,4 |
| **Tajriba oxirida (255 kunlikdan 315 kunlikgacha)** | | | | |
| Tajriba n=1560 | 16 | 1120 | 421 | 3 |
| O'rtacha og'irligi, g | 71,7 | 67,3 | 60,1 | 51,2 |
| Nazorat n=1440 | 9 | 1005 | 412 | 14 |
| O'rtacha og'irligi, g | 70,8 | 65,8 | 58,9 | 49,9 |
| **Tajriba Jami: 4380** | 34 | 3099 | 1228 | 19 |
| **Nazorat Jami: 4140** | 19 | 2909 | 1169 | 43 |

Nazorat guruhida 1320 dona tuxumdan 922 tasi o'rtacha og'irligi 65,2 g bo'lgan oliy navli, 378 tasi o'rtacha og'irligi 58,1 g bo'lgan 1-navli, 18 tasi o'rtacha og'irligi 49,2 g bo'lgan 2-navli va 2 tasi o'rtacha og'irligi 70,6 g ni tashkil etgan saralangan tuxumlar naviga kirishi aniqlandi. Shu bosqichda ikkala guruh o'rtasidagi farq sezilarli darajada katta bo'lmagan, lekin saralangan tuxumlar soni tajriba guruhida 2 donaga ko'proq bo'lgan.

195 kunlikdan 255 kunlikgacha bo'lgan davrda tajriba guruhida jami 1440 dona tuxum olingan bo'lib shundan 1014 tasi o'rtacha og'irligi 68,1 g bo'lgan oliy navli, 408 tasi o'rtacha og'irligi 60,4 g bo'lgan 1-navli, 4 tasi o'rtacha og'irligi 51,6 g bo'lgan 2-navli va 14 tasi o'rtacha og'irligi 72,4 g bo'lgan saralangan tuxum navlariga ajratildi.

Nazorat guruhida esa 1380 dona tuxumdan 982 tasi o'rtacha og'irligi 67,2 g ni tashkil etgan oliy navli, 379 tasi o'rtacha og'irligi 59,2 g bo'lgan 1-navli, 11 tasi o'rtacha og'irligi 50,4 g bo'lgan 2-navli va 8 tasi 71,1 g bo'lgan saralangan tuxumlar navlariga ajratildi. Bu bosqichda tajriba guruhida oliy navli tuxum ulushi biroz yuqori bo'lib, saralangan tuxumlar soni ko'proq bo'lgani ijobiy natija sifatida baholanishi mumkin.

255 kunlikdan 315 kunlikgacha bo'lgan davrda tajriba guruhidan olingan

1560 dona tuxumdan 1120 tasi o'rtacha og'irligi 67,3 g bo'lgan oliy navli, 421 tasi 60,1 g bo'lgan 1-navli, 3 tasi o'rtacha og'irligi 51,2 bo'lgan 2-navli va 16 tasi o'rtacha og'irligi 71,7 g bo'lgan saralangan tuxumlar navlariga ajratildi. Nazorat guruhida esa 1440 tuxumdan 1005 tasi o'rtacha og'irligi 65,8 g bo'lgan oliy navli, 412 tasi o'rtacha og'irligi 58,9 g bo'lgan 1-navli, 14 tasi o'rtacha og'irligi 49,9 g bo'gan 2-navli va 9 tasi o'rtacha og'irligi 70,8 g bo'lgan saralangan tuxumlar qayd etilgan. Ushbu davrda tajriba guruhida oliy navli tuxumlar va saralangan tuxumlar ulushi yuqoriroq bo'lganligi tuxum sifati oshganidan dalolat beradi.

Umumiy natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak (135-315 kunlik) tajriba guruhidan jami 4380 dona tuxum olingan bo'lib, shundan 3099 tasi (70,8 %) oliy navli, 1228 tasi (28 %) 1-navli, 19 tasi (0,4 %) 2-navli va 34 tasi (0,8 %) saralangan tuxumlar sifatida qayd etildi. Nazorat guruhida jami 4140 dona tuxumdan 2909 tasi (70,2 %) oliy navli, 1169 tasi (28,2 %) 1-navli, 43 tasi (1 %) 2-navli va 19 tasi (0,5 %) saralangan tuxumlar sifatida ajratilgan. Xulosa qilganda, barcha davrlar bo'yicha tajriba guruhida saralangan va oliy navli tuxumlar ulushining yuqoriligi, 2-navli tuxumlar ulushining kamayganligi "Innoprovet" probiotigining tuxum sifati va og'irligiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini bildiradi.

Dissertatsiyaning **"Tajribadagi tovuqlardan olingan tuxumlarning kimyoviy, oqsil va aminokislotalar tarkibi"** deb nomlangan ushbu qismida tuxumlarning kimyoviy, oqsil va aminokislotalar tarkibini o'rganish natijalari keltirilgan.

Tadqiqotlarda o'rganilayotgan tuxumlardan "O'z DSt 626:2014 Яйца куриные пищевые. Технические условия" standart talablariga muvofiq o'rtacha namunalar olib kimyoviy tarkibining o'zgarish ko'rsatkichlari aniqlandi.

**7-jadval**

**Olingan o'rtacha namunadagi tuxumlarning kimyoviy tarkibini aniqlash natijalari**

| № | Namunalar | Azot miqdori % | Umumiy oqsillar miqdori % | Yog'dorligi % |
|---|---|---|---|---|
